

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**«TASDIQLAYMAN»
Buxoro davlat universiteti**

O.X. Xamidov

_____ 2023 yil

**IKKINCHI VA UNDAAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLIISH BO'YICHA
60220300-TARIX (MAMLAKATLAR VA YO'NALISHLAR BO'YICHA)
YO'NALISHIGA KIRISH SINOVLARI DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Buxoro – 2023

Dastur Buxoro davlat universitetining 2023 yil 8 iyuldagi 14-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

Tuzuvchilar: J.Sh.Hayitov-BuxDU, Jahon tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d., dotsent

F.U.Temirov – BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d., dotsent

Taqrizchilar: X.To'rayev - BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası professori, t.f.d.

Sh.A.Hayitov - BuxDU, Jahon tarixi kafedrası professori, t.f.d.

KIRISH

Har tomonlama kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynovchi fan tarix fanining ushbu dasturi jamiyatning ijtimoiy negizi, uning tarkibiy qismlari, umumiy-iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, tarixiy hodisa va jarayonlarning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning amal qilish qonuniyatlari, qadimgi davlatlarning tashkil topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari kabi masalalarni qamrab olgan.

«Tarix» fani talabalarni jamiyatda ro'y beradigan tarixiy jarayonlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va tarixiy tamoyillar asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Shuningdek, bu fan jamiyatning har bir a'zosini g'oyaviy jihatdan yo'naltirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviy madaniyatini oshirishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

QADIMGI DUNYO TARIXI

1-mavzu. Kirish. Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi

Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi tushunchasi. Manba turlari va uni o'rganish metodikasi. Qadimgi yozma manbalar sfragistika va numizmatika. Arxeologik manbalar. Me'morchilik yodgorliklari. Qadimgi Misr tarixshunosligi va manbashunosligi. G.Karterning arxeologik izlanishlari. Tutanxamon maqbarasi. Qadimgi Misr yozuvi va J.Shampalon. Manefon. Qadimgi Misr adabiyoti.

Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) manbashunosligi vatarixshunosligi. Yozma manbalar, Xamurappi qonunlari. Hukmdorlar ro'yxati. Limmu Berros. Assam silendri.

2-mavzu. Qadimgi Misr.

Ilk va Qadimgi podshohliklar davrida Misr. Qadimgi Misr tarixiga oid manbalar va manbashunoslik. Tabiiy sharoiti va aholisi. Ilk ziroatkor dyehqon qabilalar. Nil vohasiga joylashishi. Misr tarixini davrlashtirish. Manyefon. Misrda stratifikasiyalashgan jamiyat vujudga kyelishi. Ilk shaharlar va davlatlar paydo bo'lishi. Misrda markazlashgan davlat shakllanish jarayoni. Ilk shohlik. I va II sulolalar. Narmer. Mina. Memfis. Jer. II sulola. Qadimgi shohlik davri. III sulola. Joser va Imxotep islohotlari IV sulola. Firavnlarning faoliyati. Snofruning tashqi siyosati. Xufu, Xafra va Menkaura. V-VI sulolalar. Qadimgi shohlik parchalanishi. Birinchi o'tish bosqichi. VII-VIII sulolalar. Qadimgi shohlik davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Misr yakka hukmronligi. Fir'avnlarni huquqlari. Chati. Davlat ma'muriyati. Harbiy kuchlar. Nomlar va mahalliy ma'muriyati. Davlat xizmatchilari. Mirzalar. Fir'avnlarni ichki siyosati va tashqi siyosati. Bosqinchilik yurishlar. Xo'jalik. Sug'orilish sistemalari. Dexqonchilik. Madaniy o'simliklar. Bog'dorchilik va uzumchilik. Chorvachilik. Konchilik. Mis metallurgiyasi. Mis buyumlar. Toshga ishlov berish. Kulolchilik, qurilish, Mastabalar, Piramidalar.

3-mavzu. O'rta podsholik davrida Misr davlati.

O'rta shohlik davri IX-X sulolalar. Gerakleopol kuchayishi. Axtoy nasihati. Liviyaliklar va Osiyo ko'chmanchilari hujumlari. XI sulola. Mentuxotep. Misr birlashishi. XII sulola. Amenemxet I, Senusert III, Amenemxet III. Ichki va tashqi siyosat. It-ta'uy. Nom zadogonlari bilan munosabatlar. Nubiya, Sinay va Falastin bosib olinishi. XIII sulola. Xalq qo'zg'olonlari va fuqaro urushi. Ipuser so'zlari va Nofertiti nutqi. Giksoslar istilosi va Misr davlati parchalanishi. XIV sulola. Davlat boshqaruvi. Nomarxlar, Zodagonlar, Dexqonlar, Fir'avn odamlari. Qullar. Ibadatxonalar va koxinlar. Xo'jalik. Sug'orilish tizimi. Fayyum. Savdo. Bibl. Ugarit va Krit. Punt. Ikkinchi o'tish bosqichi. Giksoslar hukmronligi. XV-XVI sulolalar. Avaris. Xian. Apopi. Giksoslarni Misrdagi siyosati.

4- Yangi podsholiklik davrida Misr davlati.

Yangi podsholik davri. XVII sulola. Fiva. Kames XVIII sulola. Yaxmos. Giksoslar. Misrdan haydalishi. Harbiy islohot. Tashqi siyosat va bosqinchilik yurishlar. Tutmos I. Tutmos II. Xatshepsut. Senmut. Tutmos III va uning yurishlari. Megiddo. Nubiya. Amyenxotyep IV (Exnaton) siyosiy va diniy islohotlari. Axyetaton. Tutanaxamon. Xoryemxyeb. XIX sulola. Memfis. Ramzyes II. Pyer-Ramzes. Bosqinchilik yurishlar. Xetlar bilan urush. Kadesh. Xett-Misr sulhi. Merneptax. Dengiz xalqlari bosqini. XX sulola. Fiva. Setnaxt. Ramzes III. Ibadatxonalar va koxinlar. Misr parchalanishi. Yangi shohlik davrida ijtimoiy munosabatlar. Fir'avnlr. Zodagonlar. Koxinlar. Dexqonlar va hunarmandlar. Qullar. Davlat boshqaruvi. Texmir manbasi.

5- mavzu. So'nggi podsholiklik davrida Misr davlatining ichki va tashqi siyosati.

So'nggi podshohlik davrida iqtisodiy munosabatlar. Metallarga ishlov berish. Tovar-pul munosabatlari. Bubastislar sulolasi. Tashqi savdo. Yunoniston bilan savdo. Navkratis. Sheshonk isloxtlari. yer ijarasi. Tabaqalanishni kuchayishi. Qurilish. Qadimgi Misr madaniyati va uning xususiyatlari. Diniy e'tiqodlar. Nomlar xudolari. Umumiy xudolar. Osiris va Isida. Fir'avnlr shaxsini ilohlashtirish. Exnatonning diniy islohoti. Diniy marosimlar. Marhumlar kitobi. Dafn etish marosimi. Til va uning rivojlanishi. Yozma manbalar. Qadimgi Misr adabiyoti. Afsonalar. Ertaklar. Badiiy adabiyot. Falsafa. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va me'morchilik. Ulkan haykallar.

6-mavzu. Qadimgi Bobil

Qadimgi Bobil shohligi. Siyosiy parchalanish. Xamurappi va uning faoliyati. Samsuiluna. Kassitlar xujumi. Podsho Burnaburiash davrida Bobilning tashqi siyosati. Bobil davlati zaiflashuvi. Xetlar hujumi. Kassitlar bosqini. Bobil davlati qulashi. Qadimgi Bobil madaniyati.

7-mavzu. Qadimgi Kichik Osiyo.

Qadimgi Xett davlati. Tabiiy sharoit, aholisi va tillari. Manbalar va tarixshunoslik. Chatal Guyuk madaniyati. Xadjilar. Eneolit davri madaniyati. Jez davri. Dorak. Olocha-Guyuk. Shahar-davlatlar. Ossuriya – koloniyalari. Kanish. Qadimgi Xyett davlati vujudga kelishi. Kussara. Pitxana. Nesa. Anita. Xattusa.

Labarna. Xattusili I. Pankus. Tuliya. Mursili I. Tyelyepin. Mamlakatni birlashtirish jarayoni davom etilishi. Davlat zaiflashuvi. Ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari. Yangi Xett davlati. Suppiluliuma. Old Osiyoda hukmronlik. Mitanni davlatini egallash. Mursili II. Xett-Misr qarama-qarshiligi. Kadesh. Xattusili III. Dengiz xalqlarini hujumi. Xett davlatini magʻlubiyati va parchalanishi. Mayda Xett davlatlari. Tabal va Xatti. Ijtimoiy munosabatlar. Tabarna va Tabarnana. Zodagonlar. Pankus. Kohinlar. Ozod jamoatchilar. Qullar. Xoʻjalik. Chorvachilik. Dexqonchilik. Konchilik.

8-mavzu. Qadimgi Hindiston sivilizasiyasi(Mohinjo-Daro va Xarappa)

Mohinjo-Daro va Xarappa. Hududlar tabiiy sharoit va iqlim. Manbalar va manbashunoslik xalqlar va tillar. Hindiston hududidagi ilk dexqonchilik madaniyatlari. Hind daryo vohasidagi qadimgi dehqonchilik madaniyati Ijtimoiy tuzum va iqtisodiy munosabatlar. Jxukar madaniyati. Oriy qabilalarini Hindistonga bostirib kyelishi. Oriy muammosi. Jamiyatda yangi ijtimoiy va iqtisodiy tuzum vujudga kyelishi. Braxmanizm.

9-mavzu. Qadimgi Xitoy

Hududlar tabiiy sharoit, iqlim. Manbalar va manbashunoslik. Tarixiy davrlantirish. Ilk dexqonchilik madaniyatlari. Yanishao. Lunshao. Shan va Chjou podsholiginingichki va tashqi siyosati Shan qabilasi. Shan-In davlati. Anyan. Shan-In davrida iqtisod, jamiyat va davlat. An'yan yozuv manbalari. Chjou qabilasi. Uvan yurishlari va Shan-In davlatining qulashi. Gʻarbiy Chjou davlati. Siyosiy vaziyat. Ijtimoiy tuzum. Iqtisodiy munosabatlar. Sharqiy Chjouni vujudga kyelishi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi. Savdogarlar, Sharqiy Chjou parchalanishi. Qadimgi Xitoy shohlari orasidagi kurash. Lye-Go va Jan-Go davrlari. Jamiyat tuzumi. Ijtimoiy munosabatlar. Dehqonchilik. Hunarmandchilik. Savdo. Soliqlar.

Jahon tarixi fanidan savollar.

1. Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi deganda nimani tushunasiz.
2. Manba turlari va uni oʻrganish metodikasi.
3. Qadimgi yozmamanbalar sfragistika va numizmatika.
4. Arxeologik manbalar.
5. Tutanxamon maqbarasi.
6. Qadimgi Misr yozuvi va J.Shampalon haqida ma'lumot bering.
7. Ikki daryo oraligʻi (Mesopotamiya) manbashunosligi va tarixshunosligi deganda nimani tushunasiz.
8. Yozma manbalar, Xamurappi qonunlari.
9. Hukmdorlar roʻyxati. Limmu Berros
10. Qadimgi Misr tarixiga oid manbalar va manbashunoslik deganda nimani tushunasiz.
11. Misrning ilk ziroatkor dehqon qabilalari haqida nimani bilasiz.

12. Misr tarixini davrlashtirish.
13. Misrda stratifikasiyalashgan jamiyatning vujudga kyelishi.
14. Ilk shaharlar va davlatlar paydo bo'lishi.
15. Misrda markazlashgan davlat shakllanish jarayoni.
16. Misrda ilk shohlik. I va II sulolalar.
17. Misrda qadimgi shohlik davri.
18. Joser va Imxotep piramidalari haqida gapiring.
19. Xufu, Xafra va Menkaura. Misrda V-VI sulolalar.
20. Misrda o'rta shohlik davri IX-X sulolalar.
21. Gerakleopol kuchayishi. Axtoy nasihati.
22. Ipuser so'zlari va Nofertiti nutqi.
23. Giksoslar istilosi va Misr davlati parchalanishi.
24. Misrda Giksoslar hukmronligi.
25. Tutmos III va uning yurishlari.
26. Misrga Dengiz xalqlari bosqini.
27. So'nggi podshohlik davrida iqtisodiy munosabatlar.
28. Bubastislar sulolasi.
29. Osiris va Isida. Fir'avnlarni shaxsini ilohlashtirish.
30. Qadimgi Babil shohligi. Siyosiy parchalanish.
31. Xamurappi va uning faoliyati.
32. Babilning tashqi siyosati.
33. Babil davlati zaiflashuvi.
34. Babilga tog'lik kassitlar bosqini.
35. Babil davlati qulashi.
36. Qadimgi Babil madaniyati.
37. Mohinjo-Daro va Xarappa sivilizatsiyalari haqida gapiring.
38. Hindiston hududidagi ilk dexqonchilik madaniyatlari.
39. Oriy qabilalarini Hindistonga bostirib kyelishi.
40. Qadimgi Xitoy hududlar tabiiy sharoit, iqlim
41. Qadimgi Xitoy tarixini davrlashtiring.
42. Xitoydagi G'arbiy Chjou davlati haqidag gapiring.
43. Sharqiy Chjouni vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz.
44. Braxmanizm haqida gapiring.
45. Qadimgi Xyett davlati vujudga kelishi haqida gapiring.
46. Qadimgi Misrdagi diniy qarashlar haqida gapiring.
47. Qadimgi Misrning dehqonchilik madaniyati haqida gapiring.
48. Qadimgi Xitoyning dehqonchilik madaniyati haqida gapiring.
49. Qadimgi Babilning hunarmanchiligi haqida gapiring.

50. Qadimgi Xitoydagi diniy qarashlar haqida gapiring.

Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – tarixning davlat va jamiyat taraqqiyoti natijasi ekanligi, jamiyat rivojlanishida davlatchilikning muhim voqea hisoblanishi, tarixning keyingi taraqqiyoti bosqichida fuqarolik jamiyatning paydo bo'lishi bilan fan, texnika, madaniyat, axborotlar o'zlashtira borish, ularni jamiyatga bog'lik bo'lgan hodisalarni ko'rsatishdir

Fanning vazifasi – jamiyat va davlatchilik taraqqiyotidagi uyg'unlik farqlarini ajratish, tarix fanidagi yangi nazariyalarni tahlil etish, tarixning harakatlantiruvchi omillarini talabalarga ko'rsatib berish, tarix fanining asosiy yo'nalishlarini tahlil va tadqiq qilish malakasini hosil qilish, davlat va jamiyat taraqqiyotning rivojlanish omillarini tahlil qilishda tarix fanining o'rnini tushuntirishdan iborat.

I. Asosiy nazariy qism (ma'ruzamashg'ulotlari)

I.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzularkiradi:

O'ZBEKISTON TARIXI I QISM

(O'zbekistonning eng kadimgi davridan to IX asrgacha)

1-mavzu. Kirish. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, manba va asoslari.

O'zbekiston tarixi fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni. Fanning maqsadi, vazifalari va ahamiyati. Fanning uslubiy, ilmiy-nazariy, g'oyaviy va falsafiy asoslari. O'zbekiston tarixining ilmiy-uslubiy tamoyillari hamda dolzarb masalalari. O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixini davrlashtirish. Jahon tarixini davrlashtirish to'g'risidagi nazariyalar Manbashunoslik va tarixshunoslik masalari.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlaridagi tarix, tarix fani va uning metodologiyasiga oid ilmiy-nazariy masalalar, tamoyil va yangicha yondoshuvlar. Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy merosga munosabat, zamonaviy muammolar va ayrim yondashuvlar.

Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar. Antropogenez jarayoni. Paleolit – qadimgi tosh davri tarixi. Mezolit – o'rta tosh davri tarixi. Neolit – yangi tosh davri tarixi. Eneolit – mis-tosh davri tarixi.

2-mavzu . O'zbekiston tarixining eng qadimgi davri.

Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning paydo bo'lishi to'g'risidagi nazariyalar. Antropogenez jarayoni. Paleolit – qadimgi tosh davri tarixi. Mezolit – o'rta tosh davri tarixi. Neolit – yangi tosh davri tarixi. Eneolit – mis-tosh davri tarixi.

3-mavzu. Bronza davri tarixi

Bronza davri va bronza qurollarning xususiyati. Ziroatchilik va chorvadorlar madaniyatlari doirasining kengayib borishi. Ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar. Aholi va etnik jarayonlar.

4-mavzu. O‘zbekiston davlatchiliginingshakllanishiasoslari ilk davlatlar rivojlanishiningdavrlashtirilishi. Boshqaruv tizimi va ilk davlatlar paydo bo‘lishining ijtimoiy, iqtisodiy, vasiyosiy asoslari. Davlatchilik kelib chiqishiga doir nazariyalar. Davlat turlari va shakllari. Boshqaruv tizimi.

5-mavzu. “Avesto” vazardo‘shiylik

“Avesto”ning tarixiy manba sifatidagi o‘rni. “Avesto” tili. “Avesto” va zaratushtra. “Avesto”da geografik-hududiy nomlar, ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar va siyosiy tarix. Diniy falsafa va dafn etish marosimlari. Axloqiy va huquqiy qoidalar, jinoyat va jazo turlari.

6-mavzu. Qadimgi davlatlartarixi

Qadimgi fors bitiklari va ilk yunon manbalarida tarixiy – madaniy viloyatlar va qadimgi davlatlar. Farg‘ona va Choch. Qadimgi Baqtriya. So‘g‘diyona. Qadimgi Xorazm. Sak-massagetlar. Ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar.

7-mavzu. O‘rta Osiyo Ahamoniylar davlatitarkibida (mil.avv. VI-IV asrlar)

Yozma manbalar. Ahamoniylar saltanatining tashkil topishi va O‘rta Osiyoni bosib olishi. Kir II va Doro I ning bosqinlari. To‘maris va Shiroqning jasoratlari. Frada qo‘zg‘oloni. Ijtimoiy–iqtisodiy hayot. Satrapliklardagi boshqaruv tizimi. Ahamoniylar davrida xo‘jalik, shaharlar, hunarmandchilik va savdo. Madaniy aloqalar. Madaniyat vadin.

8-mavzu. Makedoniyalik Aleksandrning Baqriya va So‘g‘diyona yurishlari

Yozma manbalar. Arrian, Kursiy Ruf hikoyalari. Strabon “Geografiyasi” ma’lumotlari. Siyosiy voqealar. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari. Aleksandr va Spitaman. Yunon- makedonlarga qarshi kurash. Tarixiy geografiya.

9-mavzu. O‘zbekistonning antik davr davlatchiligi. Salavkiylar va Yunon–Baqtriya davlatlari

Makedoniyalik Aleksandrning vafoti va saltanatning parchalanishi. Ellin davlatlarining tashkil topishi. Salavkiylar davlati. Salavka va Antiox davrida xo‘jalik va madaniy hayot. Salavkiylar davlatining kuchsizlanishi va parchalanishi. Salavkiylar davrida ellin madaniyatining tarqalishi va aralash madaniyatning shakllanishi.

Yunon–Baqtriya podsholigi, hududi va chegaralari. Ellin madaniyatining xususiyatlari.

10- mavzu. Xorazm, Qang‘, Davan, Yuyechji–Kushon va Kushon davlatlari

Xorazm davlati: shaharsozlik va me‘morchilik. Ijtimoiy– iqtisodiy munosabatlar. Tasviriy san‘at, yozuv va din. Qang‘ davlati: manbalar, tashkil topishi va chegaralari. Ijtimoiy tuzum, xo‘jaligi va shaharlari. Davan davlati: manbalar, chegaralari. Ijtimoiy–iqtisodiy hayot. Davan – Xitoy munosabatlari.

Yuyechji–Kushon va Kushon davlati. Kushon saltanatining tashkil topishi. Kanishka hukmronligi. Kushon, Xitoy, Rim munosabatlari. Kushonlar davri madaniyati. Kushon yozuvi. Kushonlar davri Shimoliy Baqtriya shaharlari.

11- mavzu. Xioniylar, Kidariylar, Eftaliylar davlati.

O‘rta Osiyoda “dehqonlar” tabaqasining vujudga kelishi. Kadivarlar, kashovarlar, chokarlar.

IV asrning 70-yillarida Xioniylar davlatining tashkil topishi. Xioniylar va Eron sosisoniyatlari davlati o‘rtasidagi munosabatlar.

O‘rta Osiyoga to‘xtar kidariylarning (V asrning 20-yillarida) kirib kelishi va o‘z hukmronligini o‘rnatishi.

V asrning o‘rtalarida Eftaliylarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi. V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning boshlarida Eftaliylar davlatining tashkil topishi. Hududi. Eron sosisoniyatlari ustidan g‘alabasi. Eftaliylar davrida ijtimoiy–iqtisodiy hayot.

12-mavzu. Turk hoqonligi davrida O‘rta Osiyo.

Turk hoqonligining tashkil topishi. Turk hoqonligining Eron va Vizantiya bilan munosabatlari. Turk hoqonligining boshqaruv tartibi. Sharqiy turk davlati va G‘arbiy Turk hoqonligi. G‘arbiy hoqonlikning kuchayishi. Ijtimoiy hayot. G‘arbiy Turk hoqonligi va Xitoy o‘rtasida iqtisodiy-savdo aloqalari.

Buxorodagi Abruy boshchiligidagi qo‘zg‘olon.

Samarqand ixshidlarining siyosiy nufuzi. Ma‘muriy birliklar. Samarqand (Kan), Buxoro, Maymurg‘, Ishtixon, Kushoniya, Omul, Andxoy, Kesh, Naxshab mulklari. So‘g‘dning xo‘jaligi va ijtimoiy hayoti. So‘g‘d ixshidlarining ajdodlari ibodatxonasi.

Farg‘ona, Xorazm va Chochning mustaqil hokimliklari. Farg‘ona afshinlari. Xorazmning afrig‘iy podsholari. Xorazmning Sharqiy Yevropa bilan savdo aloqalari. Choch tudunlari va Iloq dehqonlari. Choch va Iloqning xo‘jaligi va madaniy hayoti. Qazilma boyliklari. Savdo aloqalari.

13-mavzu. Arab xalifaligi davrida Movaraunnahr va Xuroson.

Ilmiy manbalar va tarixshunoslik. VI-VII asr boshlarida Arabiston yarim oroli va arab qabilalari. Muhammad (s.a.v.). Chahoryorlar. O‘rta Osiyoning arablar tomonidan fath etilishi. Movaraunnahr va Xuroson arab xalifaligi hukmronligi ostida. Arab xalifaligi istilosining oqibatlari. Islom dini va uning

O'rta Osiyoga tarqatilishi. Ma'naviy madaniyatdagi o'zgarishlar. Arab xalifaligining mustamlakachilik, soliqsiyosati.

Arablar bosqinidan so'ng Movarounnahr va Xurosonda ijtimoiy- iqtisodiy hayot. Movarounnahr va Xurosonda arablar bosqiniga qarshi xalq ozodlik harakatlari. Abu Muslim qo'zg'aloni. Sharik ibn Shayx ul- Mahriy qo'zg'aloni. Muqanna qo'zg'aloni. Movarounnahr va Xurosonda arab xalifaligi hukmronligiga qarshi xalq ozodlik harakatlarining oqibatlarini.

O'ZBEKISTON TARIXI II QISM

(O'zbekiston tarixining IX asrdan – XIV asrgacha bo'lgan davri)

14-mavzu. Movaraunnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlati.

Mavzuning manbalari. Mustaqil davlatlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. IX asrning birinchi choragida xalifalikdagi ijtimoiy siyosiy ahvol. Tohir ibn Husayn va tohiriylar davlati. Tohiriylar davrida ijtimoiy hayot. Tohiriylarning ma'muriy boshqaruv tizimi. Tohiriylar davlatining mag'lubiyatga uchrashi. Safforiylar davlatining tashkil topishi. Yoqub ibn Lays. Amr ibn Lays. Safforiylar davrida ijtimoiy iqtisodiy hayot.

15-mavzu. Somoniylar davlati

Manbalar. Somonxudotlar. Asad va uning o'g'illari. IX asrning birinchi yarmida turli o'g'uz qabilalari. Nasr ibn Ahmad (865-892) davrida Somoniylar hokimiyatining Abossiylar xonligi tomonidan rasman tan olinishi. Ismoil Somoniy va uning islohotlari. Markazlashgan davlat boshqaruvining tashkil topishi. Harbiy islohot. Somoniylar davrida Movaraunnahrda ijtimoiy, iqtisodiy hayot. Somoniylar hukmronligining tugatilishi.

16-mavzu. Qoraxoniylar davlati

Mavzuning tarixshunosligi. Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi to'g'ridagi yangicha qarashlar. VIII asr boshlarida Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Qashqarda yashovchi turkiy qabilalar (chig'il, ya'mo, o'g'iz va boshqalar). Qoraxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi. Qoraxoniylarning Movaraunnahrga hujumlari. Movaraunnahrda qoraxoniylar hukmronligining o'rnatilishi. Sharqiy va G'arbiy qoraxoniylar. Qoraxitoylarning hujumlari (1137-1141). Qoraxoniylar-ning davlat boshqaruvi. Qoraxoniylar davrida ijtimoiyhayot.

17-mavzu. G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmning siyosiy munosabatlari.

Manbalar. G'aznaviylar davlatining tashkil topishi. Alp Tegin. Sabuq tegin. Mahmud G'aznaviy (998-1030) va uning somoniylar hamda qoraxoniylar bilan munosabati. Mahmud G'aznaviyning harbiy yurishlari. X-XI asrlarda Janubiy va Shimoliy Xorazm. Dandanakon jangi va g'aznaviylarning mag'lubiyati. G'aznaviylarning davlat boshqaruvi tizimi.

Sirdaryo etaklarida O'g'uz davlatining tashkil topishi. Saljuqiylarning Mas'udga qarshi olib borgan kurashi. Sulton Sanjar davrida (1118-1157) saljuqiylar davlatining gullab yashnashi. Qoraxitoylarning hujumi; Qatvon cho'lidagi jang (1141) va saljuqiylarning mag'lubiyati. Saljuqiylar davlat boshqaruvi tizimi. G'aznaviylar va Saljo'qiylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

18-mavzu. Xorazmshoh - Anushtaginiylar davlati

Anushteginlar hokimiyatining vujudga kelishi. Qutbiddin Muhammad (1097-1127). Alouddin Muhammad Otsiz (1127-1156) Xorazmshoh el-Arslon (1156-1172). Alouddin Takesh va uning Xorazm davlati yuksalishdagi tutgan o'rni. Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220). Xorazmshohlar davlatining gullab yashnashi. Qoraxitoylar bilan kurash. Xorazmning Movarounnahrda ta'sir doirasining kuchayishi. Buxoroda Malik Sanjar boshchiligidagi qo'zg'olon (1206- 1207). 1212 yilgi Samarqand qo'zg'aloni. Xorazmshohlar davlatining inqirozi.

Xorazmshohlar davlatining tuzilishi. Harbiy tizimi. Majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimi. Qo'shinning tartibi. Qumondonlik. Davlat va saroydagi asosiy lavozimlar. Xorazmshohning vazifalari. Vazirlik lavozimi. Vakildorlik kengashining tuzilishi. Saroy mansablari va unvonlari (hojib ul-kabir, ustozdor, amiri-oxur, amiri- shikor, tashtdor, sharobdor, qissador, choshnigir, davotdor, farrosh, ami al-alam va boshq.). Xorazmshohlar davlatida shaharlar. Ichki va tashqi savdo. Tovar-pul munosabatlari. Tanga zarb etish ishlari. Qishloq xo'jaligi va er-suv munosabatlari.

19-mavzu. O'rta Osiyo xalqlari tarixida IX-XII asrlarda yuz bergan

Uyg'onish davri. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishini ta'minlagan shart-sharoitlar. XI-XII asrlarda fan va madaniyatning yuksak cho'qqiga ko'tarilishi. Buyuk Ipak yo'lining fan va madaniyat ravnaqidagi tutgan o'rni. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi va uning fan rivojidadagi ahamiyati. Riyoziyot, falakiyot, kimyo, tibbiyot, jug'rofiya va ijtimoiy fanlarning rivoji. Buyuk qomusiy allomalar. Fanlarni tasniflash. Tarixiy fanlarning rivoji. Adabiyotning rivojlanishi. Kalom ilmi va grammatika. Hadis va fiqh ilmi taraqqiyoti.

20-mavzu. Buyuk ipak yo'li – muloqot va hamkorlik yo'li.

Eng qadimgi aloqa yo'llari. Lojuard yo'li. Transmintaqaviy va mintaqaviy yo'llar, mahalliy yo'llar. Dasht yo'li. Oltin yo'li. Shoh yo'li. Buyuk Ipak yo'lining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati. Savdo yo'lida joylashgan shaharlar taraqqiyoti. O'rta asrlar davri savdo-iqtisodiy yo'llar. Buyuk Ipak yo'li va hozirgizamon.

21-mavzu. Etnogenez va etnik tarix masalalari.

Etnogenez va etnik jarayonlarning xususiyatlari. Qadimgi migratsiyalar va

etnomadaniy jarayonlar. O‘zbek xalqining shakllanish masalasi.

22-mavzu. Movarounnahr va Xurosonning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi.

XII-XIII asrning boshlarida Mo‘g‘ulistondagi qabilalar va birlashgan mo‘g‘ul davlatining tashkil topishi (1206). Davlatning ichki tuzilishi. Chingizxonning harbiy islohati va bosqinchilik yurishlari. Chingizxonning Movarounnahrda hujumi. Buxoro va Termizning bosib olinishi (1220). Samarqand jangi (1220) va Xorazmshoh Muhammadning Tabaristonga qochishi. Sig‘noq, O‘zgan, Jandning olinishi (1220). Xo‘jand mudofaasi va Temur Malikning jasoratlari. Gurganj mudofaasi (Najmiddin Kubro).

23-mavzu. Jaloliddin Manguberdi jasoratlari.

Jaloliddin Manguberdi. Jaloliddinning Xurosondagi dastlabki muvaffaqiyatlari. Parvon jangi. Sind jangi. Movarounnahr va Xurosonning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi. Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, Gruziyadagi harakatlari.

Xorazmshohlar davlati inqirozi. Xorazmshohlar davlati mag‘lubiyatining sabablari.

24-mavzu. Movarounnahr Chig‘atoy ulusi tarkibida.

Mo‘g‘ullar istilosining oqibatlarini. Chingizxon tomonidan bosib olingan hududlarning o‘z o‘g‘illariga bo‘lib berishi. Chig‘atoy ulusi va uning boshqaruv tizimi. Chig‘atoy ulusida ijtimoiy hayot. Mahmud Tarobiy qo‘zg‘oloni (1238). Munkaxon (1251-1259) davrida Chig‘atoy ulusining tugatilishi. XIII asrning 60-yillarida Olg‘o‘xon tomonidan Chig‘atoy ulusining qayta tiklanishi. Mas‘udbekning o‘tkazgan pul islohati (1271). Kepakxonning ma‘muriy va pul islohatlari. Chig‘atoy sulolasi hukmronligiga barham berilishi. XIV-XV asrning birinchi yarmida madaniy hayot.

O‘zbekiston tarixi fanidan savollar

1. Ibtidoiy jamoa davri tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi.
2. O‘rta Osiyo ibtidoiy tarixining davri va bosqichlari.
3. Ibtidoiy jamoa davrining tabiiyshart-sharoitlari.
4. Mustye davrining xususiyatlari.
5. Ibtidoiy odamlar guruhi va antropogenez jarayoni.
6. O‘zbekiston hududida mezolit va neolit davrlarining xususiyatlari.
7. O‘zbekiston hududida eneolit, bronza va ilk temir davrlarining xususiyatlari.
8. O‘rta Osiyodagi ilk davlat uyushmalari (VIII-VI asrlar) qadimgi Xorazm, Baqtriya, So‘g‘diyona davlatlari.
9. Eron Ahamoniylariga qarshi kurashlar.
10. Ellinizm davrida O‘rta Osiyo. Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari.
11. Qang‘, Davan va Xorazm davlatlari.
12. Kushon davlati.

13. Buyuk Ipak yo'li.
14. Ilk o'rta asrlarda yer egaligi munosabatlari.
15. Xioniylar va Kidariylar davlati.
16. Eftaliylar davlati.
17. Turk xoqonligi.
18. VI-VII asrlarda So'g'd, Farg'ona va Xorazm.
19. O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi.
20. Arab xalifaligi hukmronligiga qarshi xalq ozodlik harakatlari.
21. Tohiriylar davlati. Safforiylar davlati.
22. Somoniylar davlati.
23. Somoniylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
24. Somoniylarning davlat boshqaruvi va mudofaa tizimi.
25. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.
26. G'aznaviylar davlati.
27. Saljo'qiylar davlati.
28. Xorazmshohlar davlati.
29. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy hayot.
30. Movarounnahr va Xurosonning mug'ullar tomonidan bosib olinishi.
31. Movarounnahr Chig'atoy ulusi tarkibida.
32. O'rta Osiyoda davlatchilik masalalari.
33. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoga kirib kelgan xalqlar.
34. G'arbiy Turk xoqonligi boshqaruv tizimi.
35. Ilk o'rta asrlarda sug'd tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi.
36. Qang' va qang'lilar.
37. Arablarning O'rta Osiyoda islom dinining yoyishdagi harakatlari.
38. Qarluqlar davlati va uning boshqaruv tizimi.
39. O'g'uzlar davlatining vujudga kelishi va rivojlanishi.
40. Qarluqlar va o'g'uzlar davlatining O'rta Osiyodagi antropogenez jarayonlaridagi o'rni.
41. Mo'gullarga qarshi xalq qo'zga'alonlari.
42. Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullarga qarshi kurashi.
43. Kushon davri madaniy yodgorliklari.
44. Chig'atoy ulusidagi islohotlar.
45. Shiroq jasorati.
46. Ellinizm.
47. Ilk o'rta asrlarda "dehqon" atamasi va uning jamiyatdagi o'rni.
48. Ma'mun akademiyasi
49. Muqanna qo'zg'aloni
50. O'zbek xalqining shakllanish tarixi

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Hayitov J.Sh. Jahon tarixi. O'quv qo'llanma. Buxoro "Durdon" nashriyoti. 2021. – 280 bet.
 2. Jahon tarixi (I tom, I qism) / darslik / T.: -NAVROZ, 2018. –260 b
 3. Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi) / o'quv qo'llanma / T.: -NAVROZ, 2018. –304 b.
 4. Roger B. Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C. Naylor, Dahia Ibo Shabaka "World history: patterns of interaction". Holt Mc Dougal Little, USA, 2014.
 5. Ражабов Р. Қадимги дунуо тарихи. Тошкент. 2009.
 6. Orziyev M. Ergashev J. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. O'quv qo'llanma. "Durdon" nashriyoti. 2019. – 187 bet.
 7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. –Toshkent.: O'zbekiston.2017.
 8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston.2017.
 9. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik / Mas'ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent,2019.
 10. Noveyshaya istoriya Uzbekistana. – Tashkent. Adabiyot uchqunlari,2018. -S.512.
 11. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida. – Toshkent, O'zbekiston,2017.
 12. O'zbekistonning yangi tarixi. 1, 2, 3-kitoblar. –Toshkent.: Sharq, 2000.
 13. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 1-2-tom. Mas'ul muharrirlar: R. Abdullayev, Q. Rajabov, M. Rahimov. –Toshkent: O'zbekiston,2019.
 14. Ziyoyev X. O'zbekistonning mustaqillik uchun kurashlari tarixidan. – Toshkent,2000.
 15. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I - II– jild. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
- F.U.Temirov. O'zbekiston tarixi. Birinchi qism. (Eng qadimgi davrlardan – milodmy 4-asrgacha). –Buxoro, Kamolot, 2023

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz/
2. [http:// grid.rug.nl /ahc/](http://grid.rug.nl/ahc/)
3. [http:// Library. Byu. edu/-rdh/eurodocs/](http://Library.Byu.edu/-rdh/eurodocs/)
4. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
5. [http:// www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html)
6. [http:// english www. hss. cmu. edu/history](http://english.www.hss.cmu.edu/history)

7. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
8. [http: // www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html](http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.html)
9. [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/ww1/](http://www.lib.byu.edu/-rdh/ww1/)
10. [http: // classics.mit.edu.](http://classics.mit.edu)

IKKINCHI VA UNDAAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLISH BO'YICHA KIRISH SINOV LARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.